



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**  
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир  
ўринбосари:**  
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**  
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**  
и.ф.д. Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

**Техник муҳаррир:**  
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**  
PhD С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**  
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**  
140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти в.б., DSc

## МУНДАРИЖА:

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Амир Темурнинг одилона иқтисодий сиёсати – кудратли империянинг шаклланиш ва ривожлантириш омили	5
<b>Дилфуза Олимбоевна Матёкубова</b> Бизнес тузилмаларини инновацион ривожлантириш учун диверсификация стратегиясини танлаш истиқболларини баҳолаш тартиби ва усуллари	12
<b>G‘ayrat Zuvaytovich Ubaydullaev</b> Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish inson kapitali samaradorligini oshiradi	16
<b>Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva, Madina Isoqjonovna Oxunjonova</b> Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari	21
<b>РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Гулнора Мардиевна Шадиева</b> Влияние инновационных процессов на экономическое развитие Республики Узбекистан: теоретические аспекты	26
<b>Omonilla Saydaminovich Umarov, Abdulxay Xasanboyevich Xodjayev</b> Iqtisodiy xavfsizlikini ta’minlashda ochiq ma’lumotlar sohasining ahamiyati	31
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Рузибой Нормухаматов, Уктам Абдуғани ўғли Абдурайимов</b> Мева-сабзавотларда бўладиган нитратлардан келадиган хавфлар ва уларнинг олдини олиш йўллари	35
<b>Гулнора Мардиевна Шадиева, Умида Равшановна Равшанова</b> Теоретические аспекты занятости в сельском хозяйстве и их влияние на развитие экономики Республики Узбекистан	38
<b>Сусанна Сейрановна Алиева</b> Солнечная энергетика в тепличном хозяйстве	44
<b>Zaxriddin Vasliddin o‘g‘li Usubjonov</b> Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi	49
<b>Muxriddin Mo‘ydingon o‘g‘li Turg‘unov</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish masalalari	55
<b>Абдухолик Эгамович Тангиров</b> Чўл-яйлов чорвачилиги хўжаликлари ва уларни бошқаришдаги айрим муаммолар	58
<b>Mirodiljon Xasanboy o‘g‘li Xomidov</b> O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik korxonalarida sanoat kooperatsiyasini tashkil etish va foydalanishning iqtisodiy ahamiyati	62
<b>Xakim Toshimovich Buriyev</b> Qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy asoslari	66
<b>МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ</b>	
<b>Саидахроп Саидахмедович Гуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Ўзбекистонда таълим самарадорлигини ошириш ва камбағалликни қисқартириш бўйича айрим тавсиялар	72
<b>Обид Мамаюнусович Пардаев</b> Кўп ўлчовли камбағалликни аниқлашнинг янги индикаторлари ва уларнинг моҳияти	78

<https://www.forbes.com/sites/stevennorton/2021/03/22/industry-40-how-ford-is-rethinking-its-approach-to-manufacturing/>

3. Anderson, P. (2019). United States Council for Automotive Research (USCAR). USCAR. Retrieved from <https://www.uscar.org>

4. Miller, A. (2017). The Evolution of Supply Chain Management Models and Methods. Harvard Business Review. Retrieved from <https://hbr.org/2017/07/the-evolution-of-supply-chain-management-models-and-methods>

5. Р. Оуэна, Ф. Райффайзена, У. Кинга. Русская школа кооперативной мысли (И.В. Емельянов, В.Ф. Тотомианц)

6. Xomidov M. (2023). Analysis of the current state of innovation implementation in improving the competitiveness of industry. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(2), 56-64.

7. Xasanboy o‘g‘li, X. M. (2023). Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o‘rni. qo‘qon universiteti xabarnomasi, 1, 69-72.

8. Khomidov, M. (2024). The Economic Importance of Industrial Cooperation and How It Affects the Pursuit of Economic Effectiveness. Bulletin of Science and Practice, 10(5), 471-480. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/102/61>

<p><b>М.Хомидов</b></p> <p><b>Экономическое значение создания и использования производственной кооперации на автомобильных предприятиях Республики Узбекистан</b></p> <p><b>Аннотация.</b> Промышленная кооперация оказывает значительное влияние на мировую экономическую среду, влияя на эффективность и результативность экономических инициатив. В этой статье были проанализированы различные аспекты промышленной кооперации и их влияние на экономическую эффективность. В исследовании представлены соображения о том, как промышленная кооперация развивает инновационные экосистемы, расширяет технологии и обеспечивает эффективное использование ресурсов, а также о различных формах кооперации.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> промышленная кооперация, кооперация, автомобильный кластер, технопарки, система кайдзен, малый бизнес, экспорт, производственная инфраструктура и венчурный капитал, малые промышленные предприятия, кластер, методология.</p>	<p><b>M.Khomidov</b></p> <p><b>Economic significance of the organization and use of industrial cooperation in the automotive enterprises of the Republic of Uzbekistan</b></p> <p><b>Abstract.</b> Industrial cooperation has a significant impact on the world economic environment and affects the efficiency and effectiveness of economic initiatives. In this article the various aspects of industrial cooperation and their impact on economic efficiency were analyzed. The study examines how industrial cooperation fosters innovation ecosystems, expands technology, and ensures efficient use of resources, as well as various forms of cooperation.</p> <p><b>Keywords:</b> industrial cooperation, cooperation, automobile cluster, technology parks, kaizen system, small business, export, production infrastructure and venture capital, small industrial enterprises, cluster, methodology.</p>
--	--

**Xakim Toshimovich Buriyev** – Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professor v.b., i.f.n.

**QURILISH SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY ASOSLARI**

**Annotasiya.** Ushbu maqola qurilish sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan. Maqolada qurilish sanoatida sifat menejmenti tizimini rivojlantirish, korxonalarda bu yo‘nalishda raqobatda ustunlikka erishishning aniq strategiyasi, unga mos ravishda raqobatbardoshligini oshirish rejalari, sifat bo‘yicha raqobatbardoshlik modelining metodologik asoslarini yaratish, raqobatchilarga nisbatan sifat bo‘yicha yetakchilikni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** qurilish sanoati, sifat strategiyasi, sifat menejmenti tizimi, sifatni oshirish, metodologiya, raqobatbardoshlik, raqobatda ustunlik.

**Kirish.** Jahonda global raqobat kuchlarining tezkor o'zgarishi, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarning keskinlashuvi xalqaro raqobatbardoshlik masalalariga bo'lgan e'tiborni yanada oshirmoqda. Ayniqsa, qurilish sanoati bozorida talabning ko'payishi muammoning keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Ushbu muammoning yechimlaridan biri qurilish sanoati tarmog'ining raqobatda ustunlik omillarini rag'batlantirish, jumladan sifat menejmenti tizimlarini takomillashtirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tomonidan sohani qo'llab quvvatlashga doir farmon va qarorlarida qurilish sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish vazifalari aniq belgilab berilgan [1,2,3].

Qurilish sanoati korxonalarini va obyektlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan shunday xulosaga kelish mumkinki, aynan qurilish sanoatida raqobatbardoshlik bilan bog'liq metodologik muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Birinchidan, Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan qurilish pudrat korxonalarida sifat menejmenti tizimlarini rivojlantirish shart-sharoitlari belgilangan bo'lsa-da, ularning mazmun-mohiyati va qurilish sohasiga doir xususiyatlari bo'yicha uslubiy ishlanmalar va mexanizmlar yaratilmagan;

Ikkinchidan, qurilish korxonalarining rahbarlari va jamoasida ISO 9001-2015 standartiga mos sifat menejmenti tizimining zarurati, afzalliklari va raqobatbardoshlik bilan bog'liqligi to'g'risida tasavvur yetarli emas;

Uchinchidan, qurilish korxonalarida sifat strategiyasi hamda sifatni boshqarish modellari haqida kompleks qarash va yondoshuvlar shakllanmagan.

Ushbu muammolarning hal qilinishi qurilish korxonalarini va majmuasida sifat menejmenti tizimini rivojlantirish bo'yicha yagona uslubiy mexanizm yaratilishi bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

Bizning ta'rifimiz bo'yicha “mexanizm” atamasi sifat menejmenti tizimlarining umumiy metodologiyasiga tayangan holda amaliyotda qo'llash uchun moslashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, vakolatlar va funksiyalarning majmuasini ko'rsatib beradi. Bunga qo'shimcha ravishda, har qanday iqtisodiy mexanizm subyektlar manfaatlarini hisobga olishga va ularni motivlashtirishga asoslanadi.


**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Qurilish sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish hamda sifatni boshqarish muammolari M.Porter, A.Shreyber, A.Tompson, A.Striklend, K.Makkonnell, Dj.Djurana, A.Feygenbaum, Ya.Monden, S.Bryu, R.Fatxutdinov Yu.Monfred, I.Lukmanova, M.Babarin, V.Buzırev, A.Bayburin, N.Verstana, D.Voronov, I.Maksimova, Yu.Rubin, E.Mazilkina, G.Panichkina, A.Lukina kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularda investision-qurilish jarayonida korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari aniqlashtirilgan. [4,7,9,10,12,13,14].

Xususan, O'zbekistonda qurilish sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish hamda sifatni boshqarish masalalari: M.A.Ikramov, N.M.Maxmudov, A.N.Djabriyev, M.K.Ziyayev, M.A. Maxkamova, G.J.Allayeva, N.G.Akbarov, Z.T.Gaibnazarova, A.U.Burxonov, M.R.Boltaboyev, G.A.Bekmurodova, E.X.Maxmudov, R.I.Nurimbetov, X.Xalilova, M.A.Xusainov, Ye.J.Daulatov va boshqa iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. [5,6,8,11].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida modellashtirish, ekspert so'rovi, erkin intervyu kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Qurilish sanoatining qurilish bo'g'inida sifat menejmenti tizimini rivojlantirish mexanizmi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).

Tadqiqotimizning nazariy qismida yoritib berilgan ilmiy-uslubiy yondoshuvga tayangan holda qurilish korxonaning sifat menejmenti tizimi (SMT) uning sifat konsepsiyasiga asoslanadi. Sxemada ko'rsatilganidek bunda sifatni ta'minlash, sifatni boshqarish va sifatni kafolatlash konsepsiyasini tanlash mumkin. Ushbu mexanizmida bizlar qurilish korxonalarida sifatga oid strategiyalarining turli yo'nalishda va maqsadlarda ko'rilishini ko'zda tutganmiz, ya'ni boshlang'ich sharoitlar turli bo'lgan qurilish korxonalarining sifat menejmenti tizimini xalqaro raqobatbardoshlik darajasiga olib chiqish tartibiga rioya qilingan. SMTni takomillashtirish



**1-rasm. Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish mexanizmi<sup>1</sup>.**

mexanizmining quyidagi asosiy bo‘g‘inlarini ajratish lozim: sifat strategiyasi, sifat menejmenti tizimlarining modellari, sifat bo‘yicha raqobatbardoshlik modelining tuzilishi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida bizlar beshta sifat menejmenti modelini ajratdik (1-jadval).

Shartli ravishda “A” harfi bilan ifodalagan modelda qurilish korxonalarida sifat siyosatini ishlab chiqarish jarayonlarga qaratilgan bo‘lib, tayyor qurilish obyektlarida nuqsonlar va kamchiliklardan xoli bo‘lishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, “sifatni boshqarish” atamasida nuqsonlarni aniqlash va tuzatish, qurilish ishlab chiqarishini takomillashtirish, sifatni ta‘minlashda iqtisodiy rag‘batlantirish asosiy o‘rin egallaydi. Ushbu boshqaruv modelining tarkibiy tuzilishida qurilish ishlariga texnologik talablar, qurilish munosabatlariga doir tashkiliy-boshqaruv talablari, sifatni baholash shart-sharoitlari (nuqsonlarni kodlashtirish va standartlashtirish), iqtisodiy talablar va usullar asosiy o‘rinni egallaydilar.

“A” modelini qo‘llagan korxonalarda sifatni boshqarish tizimi endi shakllanadigan holatda bo‘lib, uni qo‘llab-quvvatlash asosiy masala hisoblanadi. Aks holda korxonada raqobat kurashida mag‘lub bo‘ladi.

Faqat rahbariyatning faol harakatlari va jamoaning ishonchi korxonani ikkinchi, “B” modelga yetaklashi mumkin.

Sifatni boshqarishning “B” modelini qo‘llagan qurilish korxonada mavjud bo‘lgan eng muhim jihat – bu rahbariyatning sifatga bo‘lgan diqqat e‘tiboridir. Ushbu modelni tanlagan korxonada mehnat jamoasining barcha a‘zolari obyektlarning sifatini oshirishga ham ishtiyoqlari, ham ko‘nikmalari mavjud. Shunga mos ravishda asosiy maqsad bo‘lib sifat xarajatlarini tan olish, baholash va boshqarish belgilanadi. Ushbu modelda sifatning statistik usullari, nuqsonlar bilan bog‘liq xarajatlar va ularni boshqarish bosh vazifalarga aylanadi. Demak, sifat menejmentining “B” modeliga erishgan qurilish korxonalarida sifatni boshqarish moliyaviy-iqtisodiy faoliyat bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

**Qurilish sanoati korxonalarida sifat menejmenti modellarining xususiyatlari<sup>1</sup>**

Model turi	Bosh maqsadi	Mazmuni	Tuzilishi
A-modeli	Tayyor obyektning loyihaga to‘liq mosligi	- ishlab chiqarishni takomillashtirish; - nuqsonlarni tuzatish; - sifatni rag‘batlantirish	- texnologik talablar; - tashkiliy talablar; - nuqsonlar tasnifi va kodi; - moddiy rag‘batlantirish
B-modeli	Obyektni loyihaga moslashtirishda xarajatlarni boshqarish	- statistik usullar; - nuqsonlarni tuzatish xarajatlari; - xarajatlarni boshqarish.	- tashkiliy-texnik va iqtisodiy talablar; - nuqsonlar monitoringi; - xarajatlar monitoringi.
V-modeli	Minimal xarajatlar bilan obyekt sifatini kafolatlash	- TQM (yalpi sifatni boshqarish); - xarajatlarni boshqarish; - sifatni oshirish; - kafolatni rag‘batlantirish.	- qurilish jarayoni monitoringi; - nuqsonlik darajasi tahlili; - sifat bo‘yicha reja.
ISO 9001, ISO 14001 modellari	Qurilishda iste’molchi manfaatlarini bajarish	- TQM (yalpi sifatni boshqarish); - sifatni oshirish; - xalqaro raqobatbardoshlik; - umumiy samaradorlikni oshirish.	- mijozlarga yo‘naltirilganlik; - yetakchilik; - xodimlarni jalb qilish; - jarayonli yondashuv; - takomillashtirish; - faktlarga asoslangan qarorlar; - munosabatlarni boshqarish.
Sifat bo‘yicha raqobatbardoshlik modeli	Erishilgan sifatning talablardan yuqori bo‘lishi	- ISO 9001; - ISO 14001; - “A” reytingga erishish; - uzluksiz takomillashtirish.	- mijozlarga yo‘naltirilganlik; - yetakchilik; - xodimlarni jalb qilish; - jarayonli yondashuv; - takomillashtirish; - faktlarga asoslangan qarorlar; - munosabatlarni boshqarish; - sifatning pastki chegarasini belgilash.

Rasmda va jadvalda keltirilgan “V” modelni tanlagan qurilish korxonalarida yuqoridagi modellarda shakllangan mexanizmlar o‘z samarasini ko‘rsatgan bo‘lib, yanada rivojlanishi uchun mustahkam zamin hisoblanadi. Keyingi bosh vazifa ham sifat, ham xarajatlarni boshqarishni yaxlit tizimga aylantirish. Ilmiy-uslubiy jihatdan ushbu modelda rahbariyatdan sifatni boshqarish bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish talab qilinadi. Ayniqsa, Total Quality Management (TQM) tizimi, sifatni oshirish tizimiga doir nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. E’tiborlisi shundaki, korxonada jamoasi a’zolarida ham soha bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarining mavjudligiga va o‘zaro almashishi ta’minlanishi zarur. Bu esa sifatni boshqarishga bag‘ishlangan doimiy o‘quv jarayoni tashkil etilishini taqozo qiladi. Mazkur modelda sifatni kafolatlash alohida kategoriyaga aylanadi, ya’ni ishchi bajargan ishi sifatiga, xizmatchi mas’ul bo‘lgan vazifa sifatiga, rahbar boshqaruv faoliyati sifatining yuqoriligiga kafolat berishi zarur bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi modellar ISO 9000 xalqaro sifat standartlariga javob beradigan sifat menejmenti tizimini yaratishning zarur va asosli bosqichlari bo‘lishi zarur. Aynan, maqsadlar va tizimli munosabatlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish va rivojlantirish xalqaro raqobatbardoshlikka erishish garovidir.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

A,B,V – modellarini bosib o‘tgan qurilish korxonalarida ISO 9001 sifat menejment tizimi va ISO 14001 atrof-muhitni boshqarish tizimi sifat menejmenti modellarini qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi.

ISO 9001, ISO 14001 standartlariga asosan sertifikatlangan sifat menejment tizimlarida ularni ajratib turuvchi muhim bosh tamoyil – iste‘molchi manfaatini hisobga olish va sifatni shunga mos darajaga yetkazish – ilgari suriladi. Tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy nuqtay nazardan ushbu tamoyilning bajarilishi juda murakkab, ya‘ni har kim ham boshqarishning manfaatini o‘zidan yuqori qo‘yishga qodir emas. Shu sababli ham ISO 9001, ISO 14001 modelini to‘rtinchi bosqichga o‘tkazamiz.

Ayrim mualliflar o‘z ishlanmalarida xalqaro standartlarga asoslangan sifat menejmenti tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkazish takliflarini keltirganlar. Bizning fikrimizcha bunday shoshqaloqlik sifatni boshqarish g‘oyasiga zarar keltirishi mumkin. Demak, qurilishda ISO 9001, ISO 14001 standartlari bo‘yicha sertifikatlangan sifat menejmenti tizimlarining mazmunini TQM tizimi, sifatni oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikka erishish g‘oyasi, sifat orqali umumiy samaradorlikni oshirish maqsadini tashkil qiladi.

Tashkiliy jihatdan mazkur modelning joriy etilishi va faoliyati ISO-9000 ning yettita tamoyillari bilan to‘liq ifodalanadi, ya‘ni mijozlarga yo‘naltirilganlik, yetakchilik, xodimlarni jalb qilish, jarayonli yondashuv, uzluksiz takomillashuv, faktlarga asoslangan qarorlar va munosabatlarni boshqarish.

Bugungi kunda qurilish korxonalariga qo‘yilgan talab bo‘yicha ISO 9001, ISO 14001 standartlariga asosan sifat menejmenti tizimlarini milliy sertifikatlash jarayonlari boshlanib ketgan. Qurilish va uy-joy xo‘jaligi vazirligi tizimida tashkil etilgan markazlar tomonidan buyurtma asosida qurilish korxonalarida tayyorgarlik ishlari olib borilib bir yil muddatga sertifikatlar berilmoqda. Ushbu jarayon korxonalarda sifat menejmentini yana bir pog‘onaga ko‘tarilishiga asos bo‘lmoqda. Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda sifatni boshqarishning yana bir modeli – sifat bo‘yicha raqobatbardoshlik modelini rivojlantirishga to‘liq asos va sharoitlar mavjud. Ushbu model jahonda yetakchi kompaniyalar tomonidan qo‘llanilmoqda hamda bosh g‘oyasi iste‘molchi va eng zamonaviy texnik talablardan yuqori bo‘lgan sifatga erishishdir.

Sifat bo‘yicha raqobatbardoshlik modelining metodologik asoslarini yaratishda bizlar zamonaviy sifat menejmenti tizimiga e‘tibor qaratishimiz lozim.

Zamonaviy sifat menejmenti tizimining xususiyatlaridan biri nafaqat iste‘molchi, balki jamiyatning manfaatlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishidadir. Jamiyat vakillariga esa birinchi o‘rinda ushbu hududda istiqomat qiluvchilar, takror muhit elementlari, tabiatning turli shakllari va nomoyondalari kiradi. Ushbu maqsad sifat bo‘yicha raqobatbardoshlik mazmun-mohiyatini to‘liq yoritib beradi, ya‘ni qurilish jarayoni va uning subyektlarining raqobatbardoshligi o‘rab turuvchi muhit (environment) ning barqarorligidan kelib chiqadi. Ushbu masalaga doir “o‘rab turuvchi muhit” atamasi qurilish obyektlari, tugallangan bino va inshootlar hamda qurilish faoliyati ta‘sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan hududiy majmuaning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Bizning fikrimizcha, “o‘rab turuvchi muhit” atamasini qo‘llash “atrof-muhit” atamasidan aniqroq va raqobatbardoshlik maqsadlariga yaqinroq ta‘rifdir.

**Xulosa va takliflar.** Olimlarning nazariy va amaliy izlanishlarining tahlili shuni ko‘ratadiki, qurilish sanoatida raqobatbardoshlikning asosiy mezonini bo‘lib sifat xizmat qiladi. Pirovard natijada yakuniy mahsulot sifati va uni ta‘minlovchi munosabatlar qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini belgilab beradi. Shu bilan birga iqtisodiy faoliyatda sifatni oshirishning maqsadga muvofiqligi korxonaning raqobatda ustunlikka erishish zarurligini tasdiqlaydi.

Qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun sifat menejmenti tizimini takomillashtirish mexanizmining quyidagi asosiy bo‘g‘inlarini ajratish lozim:

- Sifat strategiyasi;
- Sifat menejmenti tizimlarining modellari;
- Sifat bo‘yicha raqobatbardoshlik modelining tuzilishi.

Taklif qilinayotgan mexanizm bosqichma-bosqich barcha qurilish tashkilotlarini raqobat-

bardoshlikning yuqori darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, qurilish sanoati korxonalarini sifat menejmenti modellarini bosqichma-bosqich qabul qilish orqali korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6119-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5577-son Farmoni.
4. Бузырев В.В. Управление качеством в строительстве: учебное пособие для прикладного бакалавриата / В. В. Бузырев, М.Н. Юденко; под общей редакцией М.Н.Юденко. — 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2018. – 198 с.
5. Буриев Х.Т., Усманов И.А. Повышение качества строительства в Республике Узбекистан. *Россия: тенденции и перспективы развития* 17-1 (2022): 363-371.
6. Буриев Х.Т., Усманов И.А. Пути совершенствования организационно-экономического механизма повышения качества строительства: Монография. (2020).
7. Верстина Н.Г., Еленева Ю.Л. Обеспечение конкурентоспособности строительных предприятий на основе стоимостного подхода // *Экономика строительства*. 2004. № 4. С. 4.
8. Джабриев А.Н., Буриев Х.Т. Пути внедрения систем менеджмента качества. *Экономика и финансы (Узбекистан)* 1-2 (2010): 25-29.
9. Качество в истории цивилизации. Эволюция, тенденции и перспективы управления качеством. Под ред. Дж. Джурана. - В трех томах. - М.: РИА “Стандарты и качество”, 2004.
10. Monden Ya. Sistema menedjmenta Toyoty. - Moskva, Institut kompleksnykh strategicheskix issledovaniy, 2007.- 216 s.
11. Nurimbetov R.I., Normurodov S.N., Ibrohimov B.R. Zamonaviy sifat menejmenti tizimi va uni joriy etish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali. № 3, 2021.
12. Портер М. Международная конкуренция: пер. с англ. / под ред. В.Д. Щетинина. М.: Международные отношения, 1993. С. 143.
13. Фатхутдинов Р.А. Управление конкурентоспособностью организации. М.: Эксмо, 2004. С. 270.
14. Фейгенбаум А. Контроль качества продукции. Пер. с англ. - М.: Экономика, 1986. - 471с.

<p><b>Х.Буриев</b></p> <p><b>Научные основы повышения конкурентоспособности предприятий строительной промышленности</b></p> <p><b>Аннотация.</b> Данная статья посвящена проблемам, связанным с конкурентоспособностью предприятий строительной отрасли. В статье рассмотрено развитие системы менеджмента качества в строительной отрасли, четкая стратегия достижения конкурентных преимуществ предприятий в этом направлении, планы соответствующего повышения их конкурентоспособности, создание методологической основы модели конкурентоспособности качества, совершенствование показателей, отражающих лидерство по качеству по сравнению с конкурентами.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> строительная отрасль, стратегия качества, система менеджмента качества, повышение качества, методология, конкурентоспособность, конкурентное преимущество.</p>	<p><b>Kh.Buriev</b></p> <p><b>Scientific basis of increasing the competitiveness of construction industry enterprises</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article is devoted to problems related to competitiveness in construction industry enterprises. The article covers the development of the quality management system in the construction industry, the clear strategy of achieving competitive advantage in enterprises in this direction, the plans to increase their competitiveness accordingly, the creation of the methodological basis of the quality competitiveness model, the improvement of the indicators representing the leadership in terms of quality compared to competitors.</p> <p><b>Keywords:</b> construction industry, quality strategy, quality management system, quality improvement, methodology, competitiveness, competitive advantage.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.